



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA TA’LIM KAFEDRASI



«Tasdiqlayman»

Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri

O.Achilov

2025 - yil “ _____ ” _____

***“TARANNUM” nomli
(o‘zbek xalq cholg’ulari ansambli)
IJODIY TO‘GARAGI***



Denov-2025

**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI PEDAGOGIKA
FAKULTETI «MAKTABGACHA TA'LIM» KAFEDRASI HUZURIDAGI «NURLI
OHANG» IJODIY TO'GARAGI TO'G'RSIDA**

N I Z O M

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son, «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'RQ-406-son Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-sonli Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-son hamda 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy, ijodiy to'garaklarni tashkillashtirish tartibi va qoidalari asosida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti «Maktabgacha ta'lim» kafedrasida huzurida tashkil etilgan «Kreativ tarbiyachilar» fan to'garagi faoliyatini tartibga soladi.

2. To'garak o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Hay'at qarorlari, tegishli buyruqlari, institut Kengashi qarorlari va rektor buyruqlari hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

3. To'garak faoliyati jamoatchilik asosida, ma'lum pedagog rahbarligida tashkil etiladi.

4. To'garak Nizomi fakultet Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

5. To'garak rahbari o'quv semestri davomida kafedra majlisida kamida bir marta hisobot beradi.

6. To'garak qamrovi va ish shakllarini faoliyat natijalariga ko'ra kengaytirish mumkin. Shuningdek, to'garak ish faoliyatini takomillashtirish va yaxshilash maqsadida Nizomga qo'shimcha va takliflar kiritish kafedra yoki fakultet yig'ilishlari qarorlari asosida amalga oshiriladi.